

**SHAVKAT MIRZAYEV IJODIY FAOLIYATINING MUNOJAT YO'LCHIYEVA IJRO
USLUBIGA TA'SIRI**

Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti.

"Maqom xonandaligi kafedrası"

Magistratura bo'limi

2-bosqichi talabasi

Jo'rayeva Dilafuz Imomnazarovna

Ilmiy rahbar: Professor

Yo'lchiyeva Munojot Abduvaliyevna

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada millatimizning sha'nini ko'klarga ko'targan noyob ovozi, betakror ijro mahorati, o'zbek ayoliga xos go'zal fazilatlari bilan hammamizning muhabbatimiz, hurmatimizni qozongan Munojot Yo'lchiyeva va uning qadrdon ustozlari Shavkat Mirzayev bilan birgalikdagi ijodiy faoliyati haqida fikr yuritiladi.*

Аннотация: *В данной научной статье обсуждается деятельность. Муноджот Ёлчиевой, завоевавшая нашу любовь и уважение своим неповторимым голосом, неповторимым исполнительским мастерством, прекрасными качествами, присущими узбекской женщине, поднявшая до небес честь нашего народа, и ее дорогого учителя Шавката Мирзаева.*

Annotation: *In this scientific article, Munojot Yolchiyeva, who won our love and respect with her unique voice, unique performance skills, and beautiful qualities typical of an Uzbek woman, who raised the honor of our nation to the sky, and her dear teacher Shavkat Mirzayev. activity is discussed.*

Kalit so'zlar: *professional maqom xonandasi, vokal san'atining afsonaviy ustalari, ijodiy faoliyat, ijro uslub.*

Har bir xonandaning ijro uslubi shakllanishiga uning ustozlarining ta'siri albatta bo'ladi. Chunki ustoz shogirdining professional maqom xonandasi bo'lib yetishishi uchun bor mahoratini ishga soladi, yo'l yo'riq ko'rsatadi, kamchiliklarini bartaraf etib, yutuqlarini orttirishga xarakat qiladi. Munojot Yo'lchiyevaning ham o'z ijro uslubi, maqom ijrochilik maktabi mavjud bo'lib, uning shakllanishida so'zsiz ustozlarining o'rni beqiyos. OAV ga bergan deyarli har bir intervyusida Munojot Yo'lchiyeva maqom ijrochiligida o'z yo'lini topishida, muvaffaqiyatlarga erishishida ilk ustozlari Muhammadjon Mirzayev va ularning farzandlari Shavkat Mirzayevlarning alohida o'rni bor ekanini ta'kidlab o'tganlar. O'zining ijodiy faoliyati davomida 200 dan ortiq asarlar yaratgan Shavkat Mirzayev zamonamizning xalq tili bilan aytganda "Qonida bor" ijodkorlaridan biri edi.

Shavkat Mirzayevning munojot Yo'lchiyevaning ijodiga, ijro uslubiga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Ya'ni, ustoz, Munojot Yo'lchiyevaning ovozigga, tajribasiga, imkoniyatiga mos asarlarni tanlab, ijro etishni taklif qilgan. Aynan mana shu tarzda sahnaga olib chiqilgan

asarlari xonandaga katta muvaffaqiyatlar keltirgan. Bu haqda Munojot Yo'lchiyevaning o'zi suhbatlardan birida alohida ta'kidlagan: ³⁹“Bilasiz, har yili bahor va kuz oylarida katta konsert berish biz uchun an'anaga aylandi. Bir yili ana shunday taraddud jarayonida ustozim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shavkat Mirzayev “Girya” ashulasini Boborahim Mashrab g'azali asosida aytishni taklif qildi. Bu qo'shiqni kuylaganimda konsertdan so'ng ko'plab muxlislarimiz ushbu qo'shig'im uchun alohida minatdorchilik bildirishdi. Hatto teleko'rsatuvlardan birida Dildora ismli taniqli ishbilarmon ayol, “Esimni taniganimdan buyon ruscha ta'lim olib, ruscha qo'shiqlarni tinglab katta bo'lganman, shu bois o'zbekcha so'zlar va musiqalarni ko'p tinglamas, mumtoz ashulalarimizni umuman tushunmas edim. “Girya”ni eshitib shunday ta'sirlandimki, xonandaning ovozi, ijrosi va ashula so'zlaridan tamoman hayratga tushdim. Konsertdan so'ng rosa to'lib-to'lib yig'ladim, asl shuurimda, qonimda o'zbek mumtoz san'atiga bo'lgan ehtiyoj nihoyatda kuchli ekanligini anglab yetdim”, degan.” Bunday e'tiroflar har qanday ijodkorga ruh bag'ishlaydi. Yanada ko'proq izlanishga va ijod qilishga undaydi albatta.

Munojot Yo'lchiyeva va Shavkat Mirzayevlarning hamkorlikdagi konsert dasturlaridan biri “Qalb navolari” deb nomlangan edi. Aynan mana shu konsert avvalida marhum san'atkor Shavkat Mirzayev intervyu bergan edilar. Shu suhbat jarayonida jurnalist ustozga uning shogirdi ulardan o'zib ketganini va ularga qanday ta'sir etishini so'radi. Ustoz esa shunday javob berdilar: “Men cheksiz iqtidorga ega bo'lgan shogirdim bilan chin ko'nglimdan juda faxrlanaman va biz uzoq vaqtdan beri musiqachilarimiz bilan birgalikda bir jamoada muvaffaqiyatli ishlayotganimizdan juda xursandman. Biz hammamiz allaqachon bitta oila kabimiz va bu oilamizning har bir a'zosi o'z sohasida noyobdir. Barchamiz uchun bo'lajak konsert katta, muhim voqea va ijodiy yutuqdir, chunki uning dasturida biz qadimiy musiqa san'atining xilma-xilligini, barcha "ranglarini" taqdim etishga harakat qildik. Bu yerda ushbu janrning yangi va xilma-xil asarlari ijro etiladi: katta ashula, Shashmaqom, Xorazm, Farg'ona, Toshkent va hatto zamonaviy maqomlar. Bular mumtoz Sharq shoirlari va bastakorlari hamda zamonaviy mualliflarning she'rlari asosida yaratilgan asarlardir. Bu asarlarni shogirdim Munojot Yo'lchiyeva katta muvaffaqiyat bilan ijro etishiga ishonaman.” Ustozning ishonchi shogird uchun naqadar go'zal baxt, g'urur. Ustozning ishonchini, faxrini his etib, sahnaga chiqish, har qanday murakkablikdagi asarlarni ijro etishda qanot bag'ishlashi shubhasiz. Endi, tasavvur qiling, Munojot Yo'lchiyeva butun ijodiy hayoti davomida ustoz tomonidan mana shunday qanotlantirib turilgan, balki shuning uchun ham shogird yuksaklarga parvoz etgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, sozanda va bastakor Shavkat Mirzayev shogirdi Munojot Yo'lchiyeva haqida shunday fikrlarni bildirgan: “Maqom ashulalarini musiqani his qilish va idrok etish birinchi navbatda o'zi bilan ichki monologga bog'liq. Munojot Yo'lchiyevaning maqomlar ijrosi paytida ko'plab tinglovchilar konsertlarda yig'lashlari tasodif emas. O'ylaymanki, Navoiy, Mashrab, Fuzuliy va boshqa so'fiy

³⁹ Munojot Yo'lchiyeva bilan bo'lgan jonli suxbatdan yozib olingan

shoirlarining she'rlaridagi falsafani, mazmunini tinglovchilar maqomlardagi kuylar, xonandaning ijro mahorati orqali anglay boshlaydilar va o'z o'zidan yashiringan tuyg'ular jo'sh ura boshlaydi. Maqomlar mazmunan yuksak, ma'naviy va shaklan xilma-xil bo'lib, ular xalqimizning ko'p asrlik tarixi va madaniyati, ruhiyati, dunyoqarashi, estetikasi va donoligining o'ziga xos aksi bo'lib xizmat qiladi. Aytishimiz mumkinki, maqom musiqasi o'ziga xos "ruhni tozalash" xususiyatiga ega. Shuning uchun, maqomlarni ijro etish hammaga ham berilmaydi va an'anaviy o'zbek musiqasining har bir ijrochisi ham maqomning haqiqiy ustasi deb bo'lmaydi. Bu yerda texnologiya asosiy narsa yemas. Gap boshq yerda, ya'ni ijrochi nima haqida kuylayotganini aniq tushunishi va ichki xususiyatlari bilan idro etishi, uni boshdan kechirishi, maqomlarni ijro etishga ruhan tayyor bo'lishi kerak. Bu xuddi uyga o'xshaydi: uning mustaxkamligi poydevorga bog'liq. Munojotda esa mana shu poydevor bor. U an'anaviy ijrochilik iste'dodiga ega, uning his qilishi, tuyg'ularni boshdan kechirishi, ovozining tabiiy boyligi katta yutug'idir. Shu asosda biz u bilan turli xil maqom yo'nalishlarida ishlashimiz oson kechadi."

Munojot Yo'lchiyeva uchun Shavkat Mirzayevdek ustozning qo'liga tushish aslida baxtli tasodif sanaladi. Shavkat Mirzayev uchun esa bu shogird taqdirning bebaho tuhfasidir. Bu duet, ya'ni ustoz – shogird yoki ovoz – cholg'u dueti qadimiy maqom an'analari uchun juda mos sanaladi. Aslida "Ustoz otangdan ulug'" degan naql yuradi xalqimiz orasida. Shavkat Mirzayev Munojot Yo'lchiyevani shogirdlikka olar ekan unga barcha vazifalarni vaqtida bajarish, tartib intizomga rioya qilish va ovoz gigiyenasini nazorat qilish shartlarini qo'yadi. Mana shu shartlar va o'z iste'dodi bilan Munojot Yo'lchiyeva haqiqiy maqom xonandasi bo'lib yetishdi.

Aslida bu duetning ijod yo'li oson bo'lmagan. San'atshunos olim Otanazar matyoqubovning "Dodekagramma" nomli kitobida bu haqda bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Unda yozilishicha: "Munojot va Shavkat dueti oson yo'lni bosib o'tmagan, bu yo'lning ham qora bulutlari bo'lgan. Shavkatga sozandaligini eslatib turuvchilar, sozanda hech qachon ovoz bilan ishlay olmasligini, Munojotning ovozini buzib qo'yishi mumkinligini bot bot takrorlab turguvchilar bo'ldi. Shakatning ishlash uslubini tanqid qiluvchilar ko'plab topildi. Bundan tashqari, Munojotning ijro repertuarini o'zgartirish, boyitish kerak, ya'ni o'sha 70- yillarda urf bo'lgan qo'shiqlarni ham qo'shish kerak, deb ular tanlagan yo'ldan ozdirmoqchi bo'lganlar ham yo'q emas edi. Qolaversa, to'y xashamlarga borib, yengil yelpi ashulalar ijro etib, pul topish imkoni bor bo'lgan sharoitda o'z uslubidan voz kechmaslik, bu ikkala ijodkorni yuqori cho'qqilarga olib chiqdi, ularga jahon darvozalarini ochib berdi."⁴⁰ Darhaqiqat, Shavkat Mirzayev va Munojot Yo'lchiyevalarning har ikkalasi ham maqomlarga o'zgacha mehr bilan yondoshdilar va bu san'atga "hiyonat" qilmadilar. Uni boshqa san'atlar bilan qorishtirmadilar, rivojlantirdilar, ulug'ladilar, jahonga olib chiqdilar. Aynan mana shu mehr tufayli dunyo o'zbek xalqining bebaho san'atini yanada tanidi.

⁴⁰ O.Matyoqubov "Dodekagramma", Toshkent, 2005 yil.

O'zbekiston xalq artisti Shavkat Mirzayev 1942-yil 10-fevralda Toshkent shahrida tug'ilgan. Uning san'atga kirib kelishida otasi, mashhur sozanda va bastakor Muhammadjon Mirzayevning ta'siri katta bo'lganini ta'kidlash mumkin. Professor Otanazar Matyoqubovning "Dodekagamma" kitobida yozilishicha, Shavkat Mirzayev ikki yirik ildizdan ozuqa olgan. Ularning biri o'z otasi Muhammadjon Mirzayev bo'lib, undan rubob cholg'usi ijrochiligining siru sinoatlarini o'rgangan. Ikkinchi ildiz esa xofiz Ma'murjon Uzoqov bo'lgan. Aynan undan an'anaviy musiqani sahnaga olib chiqish sirlarini o'rgangan. Shavkat Mirzayev otasi Muhammadjon Mirzayevning yonida yurib, san'atning olamida yashadi. Ma'murjon Uzoqov bilan ishlash jarayonida esa oliy ma'lumotning naqadar muhim ekanini anglab yetdi va 1965-yilda Konservatoriyaning kompozitorlik fakultetiga tayyorlov kursiga qabul qilindi. Ammo u yerda berilgan bilimlar Shavkat Mirzayev uchun begona edi.

"Otam Muhammadjon Mirzayev rubob chalib yurganlarida mani yonlarida olib yurganlar, musiqani manga singdirganlar, o'rgatganlar va musiqani tushunadigan qilib tayyorlaganlar... Keyin 16 yoshimdan boshlab birgalikda sahnaga chiqa boshlaganman. Asosiy ustozim otam bo'ladilar", deydi Shavkat Mirzayev.

Shavkat Mirzayev Toshkent Davlat Konservatoriyasida an'anaviy musiqa bo'limida tahsil olgan. Ustoz Shavkat Mirzayevning otasi Muhammadjon Mirzayev yigirma uch yoshida Mamat Oxun ismli dorbozdan singan rubob sotib olib tuzatib, rubob nolalarini ilk bor ansamblga kiritgan taniqli musiqachi va bastakor edi. Shavkat Mirzayev o'smirligidayoq otasining jamoasida soz chalgan. Ular Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqov kabi o'zbek vokal san'atining afsonaviy ustalari bilan hamkorlikda televideniya konsertlar qo'yishgan. Ulug' ustozlardan – musiqani yaratish, konsert dasturlarini tuzish kabi tashviqot ishlarini ham o'rgangan.

Tayyorlov kursiga qadar Shavkat Mirzayev shakllangan sozanda edi, ammo uning qadriyatlari boshqa edi. Shuning uchun ham tayyorlov kursidan ketishga qaror qildi va 1972-yilda, konservatoriya "Sharq musiqasi" kafedrasi ochilganidan so'ng u yerga qaytib keldi. Bu kafedraning eng yaxshi, eng iste'dodli va ilg'or talabalaridan biri bo'ldi.

Shavkat Mirzayevlarning kursi Faxriddin Sodiqovda o'qishdek baxtga muyassar bo'ldi. Shavkat Mirzayev bu ustozining etagini maxkam tutdi. Faxriddin Sodiqov maktabini puxta egalladi. Ustozining vafotidan so'ng Shavkat Mirzayev talabalar ansambliga rahbarlik qila boshladi. Mana shu ansambl bilan samarqandda o'tkazilgan xalqaro an'anaviy musiqa simpoziumida ishtirok etdi. Bu simpoziumda Shavkat Mirzayev boshchiligidagi ansambl yuqori saviyada asarlarni ijro etdi va ustozlarning e'tirofiga sazovor bo'ldi. Shavkat Mirzayevning ustozlik iste'dodi mana shu natijadayoq yaqqol ko'rinib turibdi.



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shavkat Mirzayev va uning shogirdi O'zbekiston xalq qaxramoni Munojot Yo'lchiyeva

Yillar o'tib, konservatoriyaning tayyorlov kursiga kelgan Munojotni eshitib ko'radi. Uning ovozida hech kim ilg'amagan jihatlarni, qizning iste'dodini o'ta noziklik bilan payqaydi. Asta sekinlik bilan, shoshmagan holatda va shogirdini zo'riqtirmagan holda unga maqom ijrochiligining bor siru sinoatini o'rgata boshladi. Mana shunday munosabat va muhitda ta'lim olgan Munojot Yo'lchiyevaning o'zi bugungi kunda qanchadan qancha shogirdlarni tarbiyalab kelmoqda, ustozidan o'rganganlarini talabalarni tarbiyalashda qo'llamoqda.

Munojot Yo'lchiyeva ustoziga doim yuksak xurmat va ehtiromda bo'lgan va xamisha "domla" deb murojaat qilgan. Oilalari ham bir biriga qo'shni bo'lgan. Qiziqishlari bir yo'nalishda bo'lgan bu ikkala insonning o'zaro samimiy munosabatlari tahsinlarga sazovor. Aslida Shavkat Mirzayev uzoq vaqt Munojot Yo'lchiyevaga omma oldiga chiqishga ruhsat bermagan. Simpoziumlarga, katta tadbirlarga faqatgina tomoshabin sifatidagina borgan xolos. Shunday bo'lsada, uning iste'dodi haqidagi mish mishlar san'atkorlar orasida shov shuvga aylangandi. Ammo Munojot Yo'lchiyevaning birinchi marta omma oldiga chiqishi juda katta shov shuvlarga sabab bo'ldi. Bu 1979 yilning 9 fevralida taqdim etilgan "nazm va navo" ko'rsatuvi orqali namoyish etildi.

Bu ko'rsatuvda Munojot Yo'lchiyeva Navoiy so'zi bilan "Ushshoq" va "Munojot"ni ijro etdi. Ushshoqni toshkentcha variantda ijro etib, unda Yunus Rajabiyning nafasi ufurib turar edi. Munojotni ham ohangrabodek o'ziga jalb qiluvchi ovoz bilan, so'zlarini aniq talaffuz qilib ijro etdi. Mana shu omma oldida ilk chiqishi juda katta olqishlarga sazovor bo'ldi. Ko'rsatuv Respublika bo'yicha namoyish etildi va tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. Tez orada davlat tadbiri uyushtiriladi va Munojot Yo'lchiyeva u yerda ham o'sha kutilgan ijroni taqdim etdi. Bunday davraga chiqib, asar ijro etish uchun xonandada o'ziga bo'lgan kuchli ishonch bo'lishi kerak. Mana shunday chiqish bilan Munojot Yo'lchiyeva yanada kattaroq davralarni o'ziga jalb qildi. Uni millatning faxri sifatida tan olib, ijod qilishi uchun barcha sharoitlar yaratib berildi. Bu muvaffaqiyatlar Munojot Yo'lchiyevaning xatti xarakatlariga, o'zini tutishiga umuman ta'sir qilmadi. Oldingidek oddiylik va samimiyligini yo'qotmadi.

Munojot Yo'lchiyeva katta saxnaga qadam qo'yishi bilanoq, ustoziga unga sahnabop ashulalar dasturini shakllantirishga kirishgan. Ustoz va shogirdni ijodiy parvozga undayotgan eng muhim tayanchlardan biri – bu Ma'murjon Uzoqov me'rosi bo'lgan.

Sh.Mirzayev Munojat Yo'lchiyevaga "O'rgat" ashulasini Ma'murjon Uzoqov ijro etgan variantga o'zining nozik didi bilan o'ziga xos va tom ma'noda yarashqli o'zgartirishlar kiritib, o'rgatgan.

Munajat Yo'lchiyeva ustozidan asarning daromad va avj qismlarida ashulachining ovozi bir xilda chiqishi kerakligi, har bir harf ustida ishlash muhimligi, jumllarining bir-biriga ulanishidagi silliqlik, "O" degan tanaffusda ovozning bir maromda to'lqinlanishi, ijro etilayotgan asarning ruhiyatidan kelib chiqib o'ziga xos ravishda yondashish, ana shundagina ijro etilgan asar tinglovchiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, bir umr xotirasida qolishi kabi mumtoz san'atning nozik sir-sinoatlarini o'rgatgan.

Shavkat Mirzayev shogirdining ijrosida barcha jihatlarga e'tibor berdi, har bir asarni mukammal darajada ijro etishi uchun nima kerak bo'lsa, qanday maslahat, xarakter, mehnat kerak bo'lsa, hech birini ayamadi. Doimiy ravishda Munojot Yo'lchiyevaga yo'l ko'rsatib turdi, ovozi ustida ishlashni o'rgatdi. Ovozni parvarishlash jarayoniga alohida e'tibor berishdi. Munojot Yo'lchiyeva esa ustozining bergan barcha ko'rsatmalariga so'zsiz, og'ishmay amal qildi.

Bunday e'tiborli ustozga ega bo'lish xonanda uchun ulkan baxt. Chunki qanchadan qancha iste'dodlar yaxshi ustoz ko'rmagani uchun yuzaga chiqmay qolyapti. Ko'zlangan asosiy maqsadga erishish yo'lida mana shunday ustoz kabi "mayoq"ning borligi ijodkorga kuch quvvat bag'ishlaydi. Shavkat Mirzayev o'zining kelajakni ko'ra olish xususiyati, musiqiy iste'dodi va pedagogik tajribasiga ko'ra nafaqat Munojot Yo'lchiyevaga yo'l ko'rsatib bordi, balki o'zbek milliy mumtoz musiqasi, maqom san'atini yuksak cho'qqilarga olib chiqishga erishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Munojot Yo'lchiyeva bilan bo'lgan jonli suxbatdan yozib olingan.
2. O.Matyoqubov "Dodekagramma", Toshkent, 2005 yil.